

## ALEKSANDIR MAKEDONSKIYNING HARBIY YURISHLARI

**Oqbo'tayev Abdulaziz**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Tarix yo'nalishi*

*1-bosqich 14T-2023 guruh talabasi*

*Email adres: [oqbotayevabdulaziz4@gmail.com](mailto:oqbotayevabdulaziz4@gmail.com)*

*Telefon raqami:+998904119202*

**Mahmaraimov Izzat**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Tarix yo'nalishi*

*1-bosqich 14T-2023 guruh talabasi*

*Email adres: [maxmaraimovizzat@gmail.com](mailto:maxmaraimovizzat@gmail.com)*

*Telefon raqami:+998957005609*

**Qurbanov Hasan**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Tarix yo'nalishi*

*1-bosqich 14T-2023 guruh talabasi*

*Email adres: [samadkdkdksks@gmail.com](mailto:samadkdkdksks@gmail.com)*

*Telefon raqami:+998938880539*

**Annotatsiya.** Aleksandr Makedonskiyning hayoti, turmush tarzi va harbiy san'at tarixida yirik sarkarda sifatida mashhur bo`lganligi haqida haqida fikr-mulohazalar keltirib o`tilgan. Qadim zamonlardan (mil. Avv. 200-yil) Aleksandr haqida ko`plab rivoyat, adsona, doston va miniatyurlar yaratilgan. Ular o`rta asr adabiyotlarida ham keltirib o`tilgan bo`lib ushbu maqolada Aleksandr Makendoskiyning harbiy yurishlari va jasoratlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirib o`tilgan.

**Kalit so`z.** Aleksandr hayoti, Filipp, Aleksandr yurishlari, Doro III qo`shinlari, Baqtriya, Misr davlatlarining bosib olinishi, Kursiy Ruf ma'lumoti

**Kirish.** Aleksandr Makedonskiy- zamonaviy madaniyat kontekstida hozirga qadar murojaat qilib kelinadigan kam sonli antic davri shaxslaridan biridir. Aleksandrning faoliyati ko`p jabhada g`arb davlatlarining yangi tarixidagi ayrim epizodlarni yodga soladi. Aleksandr turli tarix va madaniyatga ega xalqlarning yetakchisi bo`lgan. Ba`zida mahalliy odatlar va dinini tushunmagani bosi uning boshqaruvi omadsiz kechgan. Zamonaviy bosqichda Aleksandrning G`arb va Sharq o`rtasida ko`prik qurishga bo`lgan uriniahlaridan ko`plab darslar chiqarishimiz mumkin. Aleksandr harbiy strategiya va taktikada dah obo`lgan. Qayerga yurish

qilmasin o`zining askarlaridan ko`proq qo`shinga dush kelgan, biroq doim g`alaba qozongan. Aleksandr bir vaqtning o`zida shoh bo`lish bilan birga, mohir sarkarda, siyosatchi, davlat arbobi, diplomat va xalq yetakchisi funksiyalarini barargan edi. Aleksandrning hayotidagi eng muhim inson- bu uning otasi Filipp II Makedonskiy bo`lib, o`z podshohligi uchun qilgan ishlar nuqtai nazaridan qaraladigan bo`lsa, Filipp Aleksandrdan yaxshiroq shoh edi. Aleksandrdan farqli o`laroq u o`limiga qadar oddiy makedon jangchisiligicha qolgan. Filipp Aleksandr kabi ulkan imperiyani egallamagan, ammo shoh sifatida xalqining yaxshi yashashi uchun majburiyatlarini bajargan. Antik davridagi ayrim tarixchilar uni Aleksandrdan yaxshiroq deya hisoblagan. Aleksandr miloddan avvalgi 336 yilda Makedoniya podshosi bo`lgan. Shu yili u 20 yoshga to`lgan edi. Filipp eramizdan oldingi 359 yilda taxtga o`tirgan vaqtida Makedoniya ijtimoiy va madaniyat borasida qoloq redi. Uning na iqtisodiyoti, na tayyorgarlik ko`rgan muntazam armiyasi bo`lgan, davlat harob holatda edi. 23 yillik boshqaruvi davomida u mustahkam armiyani tuzgan, keyinroq Aleksandr shu armiya yordamida Osiyoni qo`lga kiritgan edi. Aleksandrning barcha yutuqlarga erishishiga otasidan qolgan barqaror va mustahkam podoshlik hamda qudratli armiya xizmat qilgan. Aleksandr bolaligidan yuqori intellect sohibi edi. 6 yoki 7 yoshida lirada kuy chala olgan, katta yoshli insonlar bilan turli mavzularda suhbat qurgan. Ubutun grek adabiyotini o`qib chiqqan, Gomer eng sevimli yozuvchisi edi. Aleksandr 14-16 yoshga to`lganida Aristotel unga ustozlik qila boshlagan. Ammo baribir Aleksandrga ko`p ta`sirni Aristotel emas, balki otasi Filipp o`tkazgan. Aleksandr hayotining katta qismi davomida unga taqlid qilishga uringan, ulg`ayib shaxsiy harbiy muvaffaqiyatlarga erishganidan so`ng Fillipdan o`zib ketishni ham xohlagan va harakatda davom etgan. Aleksandr Makedonskiy haqida ozgina bo`lsada ma'lumotlarga ega bo`lganimizdan keyin endi esa uni harbiy yurishlari va qahramonliklari haqida ma'lumotlar berib o`tadigan bo`lsak:

Mil. Avv. 334 yilda u Sharqqa yurish boshlaydiva bu urush 10 yil davom etgan. Ana shu yurishi davomida u Kichik Osiyo, Suriya, Misr, Eron va Hindistonda katta-katta hududlarni bosib oladi. Aleksandr ulkan hududda o`z hukmronligini mustahkamlash maqsadida bosib olingen shaharlarga yunonlarni joylashtiradi. Mil. avv. 330 yilda Makedoniyalik Aleksandr Qadimgi Fors davlatining Ahamoniylar sulolasidan bo`lgan oxirgi shoh Doro III ning qo`shinlarini tor mor etadi, u Hindistonga yurish qilishdan oldin qo`shinlarining orqa tomonini xavfsizlantirish maqsadida Amudaryoning narigi tomonida yashovchi elatlarni bo`ysundirishga qaror qilgan edi. Birinchi bo`lib, uning yo`lini to`sган shahar Baqtriya poytaxti Baqtra (Zarasp) bo`ldi. Bu vaqtida ahamoniylar sulolasining vakili Bess Baqtrianing satrapi bo`lgan. U Baqtra shahrini dushmanha qoldirib, Amudaryoning narigi tarafiga qochib ketgan edi. Aleksandr qo`shinida sarkardalardan Antipatr, Parmenion, Ptolemy Lag va boshqa, shuningdek 30 mingga aqin piyoda jangchi, 5 ming otliq, yengil qurollangan

yordamchi otryadlar va 160 kemadan iborat bo`lgan. Keyinchalik u Iss(333 yil) va Gavgamela (331 yil) janglarida Doro III qo`sishinlarini yenggan. Aleksandr Eronning markaziy shaharlari-Bobil, Suza, Persepol, Ekbatana hamda Misrni egallagan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Kursiy Rufning ma'lumotlariga ko'ra Baqtriyaga Doro III ga qarshi fitna uyuştirilib u o'ldiriladi va fitnaga boshchilik qilgan Bess o'zini Ahamoniylar podshosi deb e'lon qiladi. Ammo, Bess Aleksandrga harbiy qo'shnlarni qarshi qo'ya olmadi. Mil.avv. 329 yilning bahoriga qadar Aleksandr Ariya, Drang'iyona, Araxosiya kabi viloyatlarni egallab Oks-Amudaryo bo'ylariga chiqib keladi. Arrian va Kursiy ma'lumotlariga ko'ra bu paytda daryo juda sersuv bo'lib, to'lib oqardi. Amudaryodan kechuv joyini tadqiqotchilar Kelif atroflari, Chushqago'zar, Termez atroflari va Sho'rob deb hisoblaydilar. Nima bo'lganda ham, Aleksandr qo'shnlari qoplarga somon-xashak to'ldirib, ular orqali besh kun davomida Amudaryodan kechib o'tganligi haqida Yozma manbalarda ma'lumotlar saqlangan. Aleksandr qo'shnlari daryodan o'tgach Bessni ta'qib etib «Sug'd viloyati Navtakaga» yo'l oladilar (Avval Ptolomey Lag boshchiligidagi ilg'or qism, keyin asosiy kuchlar). Sug'd erlarida Spitaman boshliq mahalliy sarkardalar Aleksandrni to'xtatib qolish maqsadida Bessni asir olib unga topshiradilar. Ammo, Aleksandrda harbiy yurishlarni to'xtatish niyati yo'q edi. Navtakadan so'ng Yunon-makedon qo'shnlari Sug'diyonaning poytaxti Smarakandaga yurish qilib uni egallaydilar.

Kursiy Ruf ma'lumotlariga ko'ra Yunon-makedonlar «Shaharda o'zlarining kichik gornizonlarini qoldirib, Yaqin atrofdagi qishloqlarni yondirib va vayron etib», Shimoli-Sharqqa tomon harakat qila boshlaydilar. Jizzax va O'ratega oralig'idagi tog'li hududlarda Yunon-makedon qo'shnlari qattiq talofat ko'radilar. Aleksandrning o'zi ham og'ir yarador bo'ladi. Shunga qaramasdan tog'li hudud aholisini qiyinchilik bilan mag'lub etgan Yunon-makedonlar dasht ko'chmanchilari saklar va sug'diyalar o'rtasida chegara bo'lgan YaksartSirdaryoga tomon harakat qiladilar. Sagdullaevning fikricha, bunday yondoshuv aniq siyosiy maqsad – yangi davlatchilik barpo etish g'oyasi bilan bog'langan edi. Bu davlat nafaqat turli halqlarning siyosiy birlashmasi bo'libgina qolmay, balki uning kelajakda makedonlar va Sharq zodagonlari qon-qarindoshligi vorisligiga tayangan davlatga aylanishi rejalashtirilgan edi. Ko'plab xalqlar va mamlakatlarni birlashtirib yagona davlat barpo etish g'oyasi, insonlarni umumiyl ong va yagona tafakkurga bo'ysundirish g'oyasi yangilik emas edi. Bunday g'oyani qadimgi fors podsholari ham o'z oldilariga maqsad qilib qo'yanlar va oqibatda mil.avv. 490 yilda Yunon-fors urushlari boshlangan. Aleksandrning harbiy yurishlaridan so'ng Sharq va G'arb o'rtasidagi keng savdo-sotiq va madaniy aloqalar rivojiana boshladi. Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi natijasida mahalliy va Yunon madaniyatining qo'shilish jarayoni boshlanadi. Bu jarayonning ta'sirini moddiy madaniyatning rivojlanishida, qurilish va me'morchilik, kulolchilik va tasviriy san'at, yangi yozuvlarning tarqalishi, tangashunoslik hamda diniy e'tiqodlarda

ko‘rish mumkin. Yunonlar o‘z navbatida qadimgi Sharqning juda ko‘plab madaniy yutuqlarini qabul qiladilar hamda mahalliy aholi madaniyatiga ham ta’sir o‘tkazadilar. Aleksandr davridan boshlab, bir necha asrlar davomida, Sharqning siyosiy tarixi (davlat tizimi, boshqaruv usullari, qonunlar va huquq) da turli an’analarning qo‘shilib rivojlanganligini ko‘zatishimiz mumkin.

**Tadqiqod metodologiyasi.** O`tgan asrning 40-50 yillaridan boshlab mil. avv. IV –milodiy IV asrlar davri O`rta Osiyo tarixini o`rganish jarayonida “antik”, “antik davr” jumlalari muomalaga kirgan edi. Ayri tadqiqotchilar bu jumlalarni faqat Gretsiya va Rim tarixiga nisbatan ishlatish lozim degan g`oyani ilgari surgan bo`lishiga qaramay, O`rta Osiyo qadimgi davri bilan shug`ullanuvchi tadqiqotchi olimlar – arxeologlar, tarixchilar, antropologlar, san’atshunoslar kabilarning ko`pchilligi shu atamani O`rta Osiyo tarixiga nisbatan ham ishlatish mumkin degan.

**Tahlil va natijalar.** Yunon-makedon bosqinchilariga qarshi uch yil davomida kurash olib borar ekan, O`rta Osiyo xalqlari mislsiz jasorat namunalarini ko‘rsatdilar. Ular Yunonlar o‘ylaganidek, «varvarlar» va madaniyatdan orqaga qolgan emas, balki o‘z davrining yuksak harbiy san’ati va madaniyatiga ega ekanliklarini namoyish etdilar. Aleksandr qo‘shinlari butun Sharq davlatlarini o‘zlariga bo‘ysundirganlarida Sug‘diyona va Baqtriyadagi kabi qattiq qarshilikka uchramagan edilar. Bu holni Aleksandr tarixini yozgan ko‘pgina qadimgi davr tarixchilari ham e’tirof etadilar. O‘zbekiston hududlarida yashagan mahalliy aholi o‘z ozodligi va mustaqilligi yo‘lida bir tan-bir jon bo‘lib harakat qilganlar. Ammo, kuchlar nisbati va harbiy texnikaning teng emasligi ko‘p hollarda bosqinchilar ustunligini ta’milagan. Shunga qaramasdan bunday holatlar davlatchilik tarixida muhim iz qoldirgan. Shunday qilib Xorazm, Choch (Toshkent vohasi), Farg‘ona va saklar yurti Aleksandrdan mustaqil bo‘lib qoladi. Sug‘diyona, Baqtriya, Marg‘iyona va Parfiya Aleksandrnning davlatiga qo‘shilib, keyinchalik ularning hududida ayrim Yunon-makedon davlatlari vujudga keladi. O`rta Osipyoda istilo etilgan viloyatlar va Shaharlarni boshqarish uchun Yunon-makedon sarkardalari bilan birga mahalliy hokimlar ham jalb etilgan. Yozma manbalarning ma’lumot berishicha, Aleksandr davrida mahalliy aholi vakillaridan Fratafarn-Girkaniyada, Artaboz-Baqtriyada, Oksiart va Xorien Sug‘diyona viloyatlariga hokimlik qilganlar. Mil.avv. 325 yilda Oksiart qo‘l ostiga Paropamis-Hindiush viloyati topshiriladi.

**Xulosa va takliflar.** Aleksandrnning harbiy yurishlari Sharq va G`arb `rtasidagi keng savdo-sotiqlari va madaniy aolqalarning rivojlanishiga olib keldi. Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o‘zgarishi natijasida mahalliy va yunon madaniyatining qo‘shilish jarayoni boshlanadi. Bu jarayonning ta’sirini moddiy madaniyatning rivojlanishida, qurilish va me’morchilik, kulolchilik va tasviriy va san’at, yangi yozuvlarning tarqalishi, tangashunoslik hamda diniy e’tiqodlarda ko‘rish mumkin. Yunonlar o‘z navbatida qadimgi Sharqning juda ko‘plab madaniy yutuqlarini qabul

qiladilar hamda mahalliy aholi madaniyatiga ham ta'sir o'tkazadilar. Aleksandr davridan boshlab, bir necha asrlar davomida, Sharning siyosiy tarixi (davlat tizimi, boshqaruv usullari, qonunlar va huquq) da turli an'analarning qo'shilib rivojlanganligini kuzatishimiz mumkin. Xullas, Aleksandr Makedonskiyning mil.avv. 334-324 yillardagi harbiy yurishlari natijasida Bolqon yarim oroli, Egey dengizi orollari, Kichik Osiyo, Misr, Old va O'rta Osiyo, Hind daryosining Yuqori oqimigacha bo'lgan hududni qamrab oluvchi ulkan davlat toshkil topdi. Yunon-makedonlarning 330-327 yillardagi O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlariga qaramasdan o'sha davrda bu hududlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida muhim o'zgarishlar bo'lib o'tdi. O'rta Osiyoga Ellin (Ellada, Bolqon yarim oroli) madaniyati kirib keldi. O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari yirik ellistik davlatlar tarkibiga kirib, bu viloyatlarda yangi siyosiy-ma'muriy tartib joriy etildi. Bu tartib O'rta Osiyoda madaniy, iqtisodiy, tovar-pul munosabatlarining rivojiga turtki bo'ldi. Aleksandr o'zidan keyin qonuniy merosxo'r qoldirmagan: u vafot etganida rafiqasi Roksana homilador edi. Bir necha hafta o'tgach ayol o'g'il dunyoga keltiradi va oxir-oqibat u Aleksandr IV ga aylangan.

### Foydalaniman adabiyotlar ro'yhati

1. Yu.S.Krushkol.Qadimgi dunyo tarixi II qism O'QITUVCHI NASHRIYOTI T o sh k e n t —1975.
2. <https://english-life.uz/aleksandr-makedonskiyning-harbiy-yurishlari/>
3. <https://azkurs.org/aleksandar-makedonskiyning-harbiy-yurishlari-va-unga-qarshi-ku.html>
4. <http://history-doc.ru/aleksandr-makedonskij/> sayti
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr>
6. <https://fayllar.org/aleksandar-makedonskiyning-harbiy-yurishlari-va-ungaqaqrshi-ku.html>